

**LANDSHAFT DIZAYNI MAZMUNI VA UNI LOYIHALASHGA BA'ZI TAHLILIY
YONDASHUVLAR**

Gulomova Nozima Xotamovna

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

«Muhandislik va kompyuter grafikasi» kafedrası dotsenti., p.f.f.d. (PhD)

gulomova.nozima@mail.ru

ANNOTATSIYA

Binolar bir yoki ko'p qavatli yakka yoki kompleksli, xususiy yoki savdo, namunali yoki stillashgan bo'lishi, turli maqsadlar uchun qurilganligiga qaramay ularni tabiat bilan uyg'unlashtirishga harakat qilinadi. Turli ko'kat va o'tlar bilan gazonlarni shakllantirish, butalarni alohida shakllantirib kerakli shakllar yaratish, alohida daraxtlarni shakllantirish orqali ko'm-ko'klikka erishiladi hamda bog', turli shakldagi gulpushtalar shakllantiriladi.

АННОТАЦИЯ

Независимо от того, являются ли здания одноэтажными или многоэтажными, одиночными или комплексными, частными или торговыми, образцовыми или стилизованными, построенными для различных целей, предпринимаются попытки гармонизировать их с природой. Озеленение достигается путем формирования газонов с различной зеленью и травами, создания необходимых форм путем отдельного формирования кустарников, формирования отдельных деревьев, а также формирования садов и цветников различной формы.

ANNOTATION

Regardless of whether buildings are single or multi-story, single or complex, private or commercial, exemplary or stylized, built for various purposes, attempts are made to harmonize them with nature. Landscaping is achieved by forming lawns with various greenery and herbs, creating the necessary forms by forming shrubs separately, forming individual trees, and forming gardens and flower beds of various shapes.

Kalit so'zlar: Bino, shakllantirish, landshaft, daraxtlar, landshaft dizayni, bog', gulzorlar, ko'm-ko'klik, go'zallik

Ключевые слова: Здание, формирование, ландшафт, деревья, ландшафтный дизайн, сад, цветы, зелёный, красота

Key words: Building, formation, landscape, trees, landscape design, garden, flower beds, greenery, beauty

Tarixdan ma'lumki, qadim zamonlardan beri odamlar daraxtlarni ekib, bog'lar yaratishgan. Asosan turli ko'rinishdagi bog'lar Sharqda hukmdorlar qasrlarida rivollantirilgan. Keyinchalik bog'lar yaratish umuminsoniyat ishiga aylangan. Gulzorlar barpo qilishga ham e'tibor berilib, go'zallikka intilish avj olgan. Ana shu go'zallikka intilish zamonaviy landshaft dizaynini yaratishga olib keladi.

Landshaft dizayni XX asrda (G'arbiy Yevropada), birinchi navbatda insonlar ko'p yashaydigan va industriya rivojlangan mavzelerde vujudga keladi. Buyuk Britaniya va Germaniya mamlakatlarida industriyaning rivojlanishi va insonlarning ko'payishi atrof muhitni asrashga olib keladi. Natijada landshaft dizayniga e'tibor kuchayadi.

Shunday qilib, landshaft -arxitektori va landshaft dizaynerining asosiy vazifasi inson faoliyati va hayoti bilan bog'liq ochiq va yopiq muhitlarni bir-biriga me'moriy uyg'unlashtirish, ularni funksional, ekologik, ergonomik va estetik badiiy talablar asosida shakllantirish, har qanday muhitning foydalanishga qulay va yorqin badiiy obrazini yaratish va shu yo'l bilan inson kayfiyatini oshirishga va yaxshilashga xizmat qilishdir.¹

Florentsiya – zamonaviy landshaft shahri hisoblanib, u yerda dizayn – daraxt, buta, gullar va dunyoning turli-tuman o'simliklardan aniq geometrik shakllardan simmetriyalikka amal qilgan namunaviy bog'-shahar yaratilgan. Shahar landshaft dizayni “epoxa vozrojdeniya” – qayta tiklanish davrida Italiyaning taniqli Medichilarning villasidan boshlanadi. O'sha davrlarda bu kichik villa – dala hovlida turli o'simliklardan bog' yaratiladi. Keyinchalik bu villa kengayib kattalashganda “Florentsiya” – o'simliklar turi – bog' uy nomlana boshlagan. Hozirda bu katta shahar dunyodagi eng go'zal hisoblanib, turist (sayyoh)lar eng ko'p boradigan maskanga aylangan.

Landshaft (peyzaj, manzara, ko'rinish) dizayni (chizma, tasvir) – san'at sifatida uchta yo'nalishning to'qnashadigan joyida rivojlangan. Bir tomondan arxitektura-qurilish va loyihalash (muhandislik nuqtai nazar), ikkinchi tomondan botanika va o'simlik o'stirish (biologik nuqtai nazar) va uchinchi landshaft dizaynida tarixiy voqealar ma'lumotlari (asosan falsafa, madaniyat, san'at nuqtai nazar)dan foydalaniladi. Landshaft dizayni umumlashgan universal soha bo'lib, uning asosiy vazifasi landshaft dizayni – go'zallikni binolarning turli ko'rinishlari bilan hamda kundalik hayotda uchraydigan qo'pol narsalarni tabiat bilan uyg'unlashtirishdan iborat. Landshaft dizayni umumiy tushunchada landshaftni loyihalash deb atash o'rinli hisoblanadi. Landshaft dizayni bog'i loyihasidan o'rin

¹ K.D.Raximov, A.S.Uralov “Landshaft arxitekturasini obyektlarini loyihalash” darsligi «Sano-standart» nashriyoti Toshkent— 2015, 11 bet

olgan antiqa dekorativ yasama daraxtlar, favvoralar, butalar, turli ko'katlar, gullardan va boshqa ashyolardan barpo qilinadi.

Quyidagi tasvirlarda landshaft dizayni bog'larida turli ko'rinishdgi antiqa badiiy asarlar keltirilgan:

1. Qulay va juda ham ajoyib yo'lka orqali suvto'laga boriladi. Bu yerda o'tkazilgan dam olish kunlaringizni xotirangizda umringiz oxirigacha eslab yurasiz (1-chizma).



1-chizma

2. Ertaklardagidek uycha. Bunday qurilmani yasash har qanday bog'bonning ham qo'lidan kelavermaydi. Lekin bu uycha maxsus o'sadigan o'simliklardan yasalgan bo'lib, insonlarni lol qoldiradi (2-chizma).



2-chizma

3. O'sayotgan o'tlardan yasalgan divan. Bu yumshoq gazon o'tlardan qurilgan divanda o'tirish – rohatning o'zginasi (3-chizma).



3-chizma

4. Choynaksimon shiyponcha. Bu shiyponchani choynak ko‘rinishida qurilganligi landshaft dizayn g‘oyalariga yanada katta chiroy bermogda (4-chizma).



4-chizma

5. Daraxtdan yasalgan uycha. Bu uycha landshaftning chegaralangan qismi bo‘lib, uni uzoqdan qaraganda oddiy tepalik deb hisoblash mumkin (5-chizma).



5-chizma

6. Bahaybat qisqich. Bu landshaft dizayni zamonaviy san‘atning haqiqiy asariga aylantirilgan (6-chizma).



6-chizma

Zamonaviy binolar qurilishida landshaft dizaynini yaratish orqali atrof muhit o'zgaradi. Landshaft dizaynidagi o'simliklar antiqa dekorativ yasama daraxtlar, favvoralar, butalar, turli ko'katlar, gullardan foydalanilsa yangi qurilayotgan binolarga chiroy qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xotamovna, G. N. (2024). INNOVATIVE EDUCATIONAL TECHNOLOGIES IN THE DEVELOPMENT OF STUDENTS' CONSTRUCTIVE COMPETENCES. European International Journal of Pedagogics, 4(03), 87-91.
2. Gulomova, N., & Saidaliyev, S. (2020). Development of Emergency Image in Students Psychological-Pedagogical Problems. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 18(2), 181-186.
3. Saydaliyev, S., & Gulomova, N. (2019). Development of Spatial Thinking of Students Based on the Traditions of Eastern Architecture. International Journal of Progressive Sciences and Technologies, 14(2), 210-214.
4. Gulomova N.Kh. Chizmachilik (loyihalash) Uslubiy qo'llanma Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasida nashr qilingan. Toshkent 2015, hajmi 4,25b/t
5. Xotamovna, G. N. (2024). THE ROLE OF GEOMETRIC PATTERNS IN FORMING STUDENT'S CREATIVE SKILLS. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 4(04), 170-178.
6. Гуломова, Н. (2021). Активизация познавательной деятельности учащихся с помощью нестандартных тестов с использованием iSpring Quiz Maker по обучению "Передачам". Общество и инновации, 2(5), 8-18.
7. Ro'ziyev, E. I., & Ashirboyev, A. O. (2010). Muhandislik grafikasini o'qitish metodikasi. T.: «Fan va texnologiya», 248.